

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

Ro'yxatga olindi:

№ BD-60840200-1.27

“29” 08 2025 yil



“TASDIQLAYMAN”

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

professor A.A. Elmurodov

2025 yil

**AKUSHERLIK VA GINEKOLOGIYA
ISHCHI O'QUV DASTURI (SILLABUSI)
(sirtqi ta'lim shakli uchun)**

Bilim sohasi:-	800000-	Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya
Ta'lim sohasi:-	840000 -	Veterinariya
Ta'lim yo'nalishi:-	60840200-	Veterinariya farmatsevtikasi

Samarqand – 2025 yil

Mustaqil fikrlay olmaslik.

2. Eshburiyev B.M., Eshburiyev S.B., Djumanov S.M. Veterinariya akusherligi fanidan amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari. O'quv qo'llanma. - Samarqand: "SamDU tahririy-nashiriyot", 2020 yil.
3. Eshburiyev B.M., Djumanov S.M., B.S.Alimov Hayvonlar ko'payish biotexnikasi. Darslik. Samarqand, 2023. 335 bet

Qo'shimcha adabiyotlar

4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet.
5. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil. – 416 bet.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696 son Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-187-son qarori.
9. David E.Noakes Timothy J.Parkinson Gary C.W. England. Veterinary Reproduction and obstetrics. Coperight. 2019 by Elsevier, Ltd. All rights reserved.
10. Акушерство, гинекология и биотехника репродукции животных: Учебник / Под ред. Г.П.Дюльгера. - 9-е изд., перераб. и доп. - СПб.: Издательство «Лань», 2019. - 548 с.: ил. - (Учебники для вузов. Специальная литература).
11. Баймишев Х.Б., Землянкин В.В., Баймишев М.Х. Практикум по ветакушерству и гинекологии. Учебное пособие. ООО Издательство «Книга» Самара 2012 год.
12. Студенцов А.П., Шипилов В.С., Никитин В.Я. и др.; Под ред. В.Я. Никитина и М.Г. Миролубова. Ветеринарное акушерство, гинекология и биотехника размножения/ – перераб. и доп. Учебник – М.: Колос, 2019 год.
13. Ata-Kurbanov Sh.B., Eshburiyev B.M. Hayvonlar ko'payish biotexnikasi. Samarqand. "N.Doba" XT, 2012.
14. Eshburiyev B.M. Veterinariya akusherligi, ginekologiyasi va ko'payish biotexnikasi fanidan leksiyalar kursi. Samarqand, 2012.

Axborot manbalari

15. www.Ziyo.net.uz.
16. www.vetjurnal.uz
17. www.twirpx.com

VIII. Baholash

Talabalarning fanlarni o'zlashtirishi 5 ballik tizimda baholanadi.

5 (a'lo) baho:

Xulosa va qaror qabul qilish;
Ijodiy fikrlay olish;
Mustaqil mushohada yurita olish;

Fan sillabusi

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Fan to'g'risida ma'lumot

Fan shifri: AG1704

Fan nomi: Akusherlik va ginekologiya

Semestr/yil: 9- semestr/2025-2026 o'quv yili

Kafedra: Veterinariya jarrohligi va akusherlik

Soatlar/kreditlar: 4 ECTS (20 auditoriya soati, 100 soat mustaqil ta'lim)

Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot	Laboratoriya mashg'ulotlari	Mustaqil ta'lim	Jami
6	8	6	100	120

Fan bo'yicha mashg'ulotlarning joylashuvi:

Auditoriya vaqti: dars jadvaliga asosan

Talablar:

Fan uchun mas'ul kafedra: "Veterinariya jarrohligi va akusherlik"

Instruktor to'g'risida ma'lumot:

Professor, v.f.d. Eshburiyev B.M.

Kafedra joylashgan joyi: SamDVMCHBU, 3- o'quv binosi, 315-xona

Telefon: +99891-316-68-61 ish telefoni; mobil: +99897-919-47-94

E-mail: baxtiyareshburiyev.59@gmail.com; Ish vaqti: Uchrashuvga ko'ra

I. Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga qishloq xo'jalik va uy hayvonlari jinsiy a'zolarining morfo-funksional xususiyatlari, erkak hayvonlardan sperma olish, sifatini baholash, hayvonlarni tabiiy va sun'iy urug'lantirish, embrionni transplantatsiyasi, otalanish, bo'g'ozlik, tug'ish fiziologiyasi va patologiyasi, ginekologik va andrologik kasalliklar, yangi tug'ilgan hayvonlar va sut bezlarining kasalliklarini aniqlash, davolash va oldini olish, bepustlik va qisirlklarni aniqlash va oldini olish tamoyillarini o'rgatish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

II. Fanning vazifasi – nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, hayvonlar jinsiy a'zolarining morfo-funksional xususiyatlari, erkak hayvonlardan sperma olish, sifatini baholash, hayvonlarni tabiiy va sun'iy urug'lantirish, embrionni transplantatsiyasi, otalanish, bo'g'ozlik, tug'ish fiziologiyasi va patologiyasi, ginekologik va andrologik kasalliklar, yangi tug'ilgan hayvonlar va sut bezlarining kasalliklarini aniqlash, davolash va oldini olish, bepustlik va qisirlklarni aniqlash va oldini olish bo'yicha nazariy-amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlikda o'rgatishdan iborat.

III. Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- urg'ochi va erkak hayvonlar jinsiy a'zolarining morfo-funksional xususiyatlari, ovogenez va spermiogenez, sperma biokimyosi, turli urg'ochi hayvonlarda jinsiy sikl fiziologiyasi **haqida tasavvurga ega bo'lishi;**

- sun'iy urug'lantirishda ishlatiladigan asbob-uskunalarini ishlatishga tayyorlash, erkak hayvonlardan sperma olish, uni sifatini aniqlash va saqlash, hayvonlarni tabiiy va sun'iy urug'lantirish, embrionni ko'chirib o'tkazish usullarini; hayvonlarda bo'g'ozlik va bepustliklarni aniqlash; tug'ish paytida akusherlik yordami ko'rsatish **ko'nikmalariga ega bo'lishi;**

- hayvonlarda jinsiy a'zolar funksiyalarini stimullash va kuyikishni sinxronlashtirish, urg'ochi hayvonlarni sun'iy urug'lantirish hamda bo'g'ozligini aniqlash, murtakni kuchirib o'tkazish, akusher-ginekologik kasalliklar, yangi tug'ilgan hayvonlar, sut bezlarining kasalliklari, bepustlik va qisirliklarni aniqlash, davolash va oldini olishda zamonaviy akusherlik asbob-uskunolari va veterinariya preparatlaridan foydalanish **malakasiga ega bo'lishi kerak.**

IV. O'qitish usullari:

Fanni o'qitish jarayonida zamonaviy uslublardan foydalanish, sohadagi muammolarni ta'limning ommaviy shakllari bilan bog'lab, talabalarning nazariy bilimlarini amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlab borish lozim. O'quv materiallarini talabalar tomonidan unumli o'zlashtirish uchun ko'rgazmali qurollar o'qitishning texnik vositalari, jinsiy organlar preparatlari, mulyajlar, sun'iy urug'lantirish asbob-uskunalarini hamda veterinariya akusherligi bo'yicha chop etilgan darslik, o'quv qo'llanma va ma'ruza matnlaridan keng foydalanish, talaba bilimni baholash tizimini joriy etish. Ma'ruza mashg'ulotlarida ilg'or pedagogik texnologiyalar foydalaniladi.

“Akusherlik va ginekologiya” kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

- Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.
- Tizimli yondoshuv.
- Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv.
- Dialogik yondoshuv.
- Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish.
- Muammoli ta'lim.

	Sun'iy abortlar. Abortlar paytida umumiy tadbirlar	amaliy topshiriqlarni bajarish	
11	Hayvonlarda qorin bo'shlig'ini Kesarevo usulida yorish va fetotomiya operatsiyasi	Adabiyotlardan tayyorlanib, amaliy topshiriqlarni bajarish	4
12	Tug'ishga halaqit beruvchi majruxlik va nuqsonlar. Tug'ish yo'llarining jarohatlanishlari	Adabiyotlardan konspekt qilib refarat yozish	4
13	Tug'ishdan keyingi perimetrit va parametrit. Tug'ishdan keyingi sapremiya va eklampsiya	Adabiyotlardan tayyorlanib, amaliy topshiriqlarni bajarish	4
14	Homila yo'ldoshini eb qo'yish. Hayvonlarning o'z bolalarini eb qo'yishi	Adabiyotlardan tayyorlanib, amaliy topshiriqlarni bajarish	4
15	Yangi tug'ilgan hayvonlarda oval teshigining yopilmay qolishi. Uraxus fistulasi	Adabiyotlardan konspekt qilib refarat yozish	4
16	Turli hayvonlarda mastitlar. Cho'chqalarda metrit-mastit-agalaktiya sindromi	Adabiyotlardan konspekt qilib refarat yozish	4
17	Yelin va yelin so'rg'ichlari jarrohliklari. Sut bezini ekstirpatsiyasi	Adabiyotlardan konspekt qilib refarat yozish	4
18	Spesifik mastitlar. Kam sutlilikni profilaktikasi.	Adabiyotlardan tayyorlanib, amaliy topshiriqlarni bajarish	4
19	Erkak hayvonlarni pushtsizlantirish. Urg'ochi hayvonlarni pushtsizlantirish.	Adabiyotlardan konspekt qilib refarat yozish	4
20	Hayvonlarda jinsiy a'zolarini tekshirish metodikalari.	Adabiyotlardan tayyorlanib, amaliy topshiriqlarni bajarish	4
21	Andrologik dispanserlash. Erkak hayvonlar bepustliklarining turlari, sabablari, davolash va oldini olish usullari.	Adabiyotlardan tayyorlanib, amaliy topshiriqlarni bajarish	4
Jami			100

VII. Adabiyotlar Asosiy adabiyotlar

1. Eshburiyev B.M. Veterinariya akusherligi. Darslik. - Toshkent.: "Fan va texnologiyalar", 2018 yil.

	va funksional holatini aniqlash. Sigirlarda, biya, qo'y va echkilarda mastitlarni laboratoriya diagnostikasi.	funksional holatini aniqlash. 3.2. Sigirlarda mastitlarni laboratoriya diagnostikasi. 3.3. Biya, qo'y va echkilarda mastitlarni laboratoriya diagnostikasi.	
	Jami:		6

VI. "Akusherlik va ginekologiya" fanidan rejalashtirilgan talabalar mustaqil ta'limining kalendar tematik rejas

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Amalga oshirish mexanizmi	Hajmi (soatda)
1	Qo'y, echki, biya va cho'chqalarda jinsiy siklni kechish xususiyatlari va uni stimullash vositalari.	Adabiyotlardan tayyorlanib, amaliy topshiriqlarni bajarish	6
2	Sun'iy urug'lantirish punktlari ishini tashkillashtirish va jixozlash.	Adabiyotlardan konspekt qilib refarat yozish	6
3	Organizmdan tashqarida spermatozoidlarga tashqi omillarning ta'siri.	Adabiyotlardan tayyorlanib, amaliy topshiriqlarni bajarish	6
4	Hayvonlarni tabiiy urug'lantirish usullari. Turli hayvonlarda jinsiy aloqaning o'ziga xosligi.	Adabiyotlardan tayyorlanib, amaliy topshiriqlarni bajarish	6
5	Kuyikishni aniqlovchi erkak hayvonlarni tayyorlash. Kuyikishni aniqlash usullari	Adabiyotlardan tayyorlanib, amaliy topshiriqlarni bajarish	6
6	Biya va qo'ylarda embrionni transplantasiyasi	Adabiyotlardan konspekt qilib refarat yozish	6
7	Tuyalarda va urg'ochi eshaklarda bo'g'ozlikni aniqlash usullari	Adabiyotlardan tayyorlanib, amaliy topshiriqlarni bajarish	6
8	Go'shtxur hayvonlarda bo'g'ozlik va bepustlik diagnostikasi. Hayvonlarda oldingi bo'g'ozlikning diagnostikasi	Adabiyotlardan tayyorlanib, amaliy topshiriqlarni bajarish	6
9	Bachadondan qon ketishi. Homila pardalarida ortiqcha suyuqlik to'planishi. Bachadon griyasi	Adabiyotlardan konspekt qilib refarat yozish	4
10	Idiopatik yuqumsiz abortlar.	Adabiyotlardan tayyorlanib,	4

V. Fanning tarkibiy tuzilishi:

5.1. "Akusherlik va ginekologiya" fanidan rejalashtirilgan ma'ruza mashg'ulotlarining kalendar tematik rejas

Ma'ruza mashg'ulotlarining:			
№	Mavzulari	rejasi	soat
1-modul. Hayvonlar ko'payish biotexnikasi			
1.1	"Akusherlik va ginekologiya" fani to'g'risida. Urg'ochi va erkak hayvonlar jinsiy a'zolarining anatomo-morfologik va fiziologik xususiyatlari Hayvonlarda jinsiy sikl fiziologiyasi Hayvonlarini urug'lantirishni tashkillashtirish va texnologiyasi. Sun'iy urug'lantirish usullari	1.1.1. "Akusherlik va ginekologiya" fanining ta'rifi, maqsadi, vazifalari, rivojlanish tarixi, yutuqlari va veterinariya amaliyotidagi o'rni. 1.1.2. Fanning boshqa fanlar bilan aloqasi. Turli urg'ochi va erkak hayvonlar jinsiy a'zolarining morfofiziologik xususiyatlari. Tuxum hujayrasining rivojlanishi (Ovogenez) va urug' hujayrasining rivojlanishi (spermiogenez) 1.1.3. Hayvonlarda jinsiy sikl fiziologiyasi. Sariq tanani turlari, tuzilishi va rivojlanishi. Sun'iy urug'lantirish usullari	2
2-modul. Bo'g'ozlik fiziologiyasi va patologiyasi			
2.1	Otalanish. Bo'g'ozlik fiziologiyasi Bo'g'oz hayvonlarning kasalliklari	2.1.1. Otalanishning mohiyati, bosqichlari. Tuxum hujayrasining harakati va hayotchanligi. 2.1.2. Superfekundasiya. Zigota va homila pardalarining rivojlanishi. Homila oldi va siydik suyuqligi, hosil bo'lishi va ahamiyati. Homila yo'ldoshi turlari. 2.1.3. Homilada qon aylanishi. Bo'g'ozlik, uning turlari. Hayvonlarda bo'g'ozlik muddatlari. 2.1.4. Bo'g'oz sigirlarni sutdan chiqarish muddatlari. Bo'g'oz hayvonlarni oziqlantirish, parvarishlash va ishlatish qoidalari. Bo'g'oz hayvonlar kasalliklarining turlari, sabablari. Bo'g'oz hayvonlar organizmiga tashqi omillarning ta'siri. 2.1.5. Bo'g'oz hayvonlar kasalliklarining turlari, sabablari. Bo'g'oz hayvonlar Bola	2

		tashlash (abort) turlari, sabablari organizmiga tashqi omillarning ta'siri	
3-modul. Tug'ish, tug'ishdan keyingi davr fiziologiyasi va patologiyasi. Yangi tug'ilgan hayvonlar kasalliklari			
3.1	Tug'ish va tug'ishdan keyingi davr fiziologiyasi Ona hayvon organizmi bilan bog'liq tug'ish patologiyalari	3.1.1. Tug'ish jarayoni to'g'risida tushuncha. Tug'ishni boshlanishiga ta'sir etuvchi omillar. 3.1.2. Hayvonlarni tug'ishga tayyorlash. To'lg'oq va kuchanishlar. Tug'ish jarayoni bosqichlari. Turli hayvonlarda tug'ishning davom etishi. 3.1.3. Tug'ishdan keyingi davr va organizmdagi umumiy o'zgarishlar, jinsiy a'zolar involutsiyasi. 3.1.4. Yangi tuqqan hayvonlarni parvarishlash qoidalari. Akusherlik yordami ko'rsatishga tayyorlanish. Akusherlik asbob-uskunalar	2
Jami:			6

5.2. "Akusherlik va ginekologiya" fanidan rejalashtirilgan amaliy mashg'ulotlarining kalendar tematik rejasi

Amaliy mashg'ulotlarning			
No	Mavzulari	rejasi	soat
1.	Turli urg'ochi va erkak hayvonlar jinsiy a'zolarining anatomo-topografik va fiziologik xususiyatlari.	1.1. Turli urg'ochi hayvonlar jinsiy a'zolarining tuzilishi va topografiyasining farqlanishini o'rganish. Sariq tana. 1.2. Erkak hayvonlar jinsiy a'zolarining tuzilishi va topografiyasining farqlanishini o'rganish 1.3. Erkak hayvonlarning jinsiy reflekslari va ularning boshqarilishi	2
2	Sun'iy qinlarni yig'ish va ishlatishga tayyorlash. Erkak hayvonlar va parrandalardan sperma olish usullari.	2.1. Sun'iy urug'lantirishda ishlatiladigan idishlar va asboblarni ishlatishga tayyorlash va zararsizlantirish. Eritmalar, filtrlar, tampon va doka salfetkalarini tayyorlash. 2.2. Spermiylar konsentratsiyasini	2

		Goryaev sanoq to'ri yordamida aniqlash. 2.3. Spermiylar konsentratsiyasini optik standartlar yordamida aniqlash..	
3	Bo'g'ozlikni tashqi tomondan aniqlash usullari. Hayvonlarda bo'g'ozlikni ultratovush tekshirish (UTT) yordamida aniqlash.	3.1. Sigirlarda bo'g'ozlikni ultratovush tekshirish (UTT) yordamida aniqlash. 3.2. Biyalarda bo'g'ozlikni ultratovush tekshirish (UTT) yordamida aniqlash. 3.3. Mayda hayvonlarda bo'g'ozlikni ultratovush tekshirish (UTT) yordamida aniqlash. 3.4. Bo'g'ozlikni tashqi tomondan aniqlash usullari	2
4.	Hayvonlarda mastitlarni davolash va oldini olishning zamonaviy usullari.	4.1. Sigirlarda mastitlarni davolash va oldini olishning zamonaviy usullari. 4.2. Biya, qo'y va echkilarda mastitlarni davolash va oldini olishning zamonaviy usullari.	2
2			
Jami:			8

5.3. "Akusherlik va ginekologiya" fanidan rejalashtirilgan laboratoriya mashg'ulotlarining kalendar tematik rejasi

Laboratoriya mashg'ulotlari:			
No	Mavzulari	rejasi	soat
1.	Sun'iy urug'lantirishda ishlatiladigan idishlar va asboblarni ishlatishga tayyorlash va zararsizlantirish.	1.1. Sun'iy urug'lantirishda ishlatiladigan idishlar va asboblarni ishlatishga tayyorlash. 1.2. Sun'iy urug'lantirishda ishlatiladigan idishlar va asboblarni zararsizlantirish usullari. 1.3. Eritmalar, filtrlar, tampon va doka salfetkalarini tayyorlash	2
2	Hayvonlarda bo'g'ozlikni aniqlashning laboratoriya usullari.	2.1. Sigirlarda bo'g'ozlikni aniqlashning laboratoriya usullari. 2.2. Biyalarda bo'g'ozlikni aniqlashning laboratoriya usullari. 2.3. Mayda hayvonlarda bo'g'ozlikni aniqlashning laboratoriya usullari.	2
3	Sut bezlarining morfologik	3.1. Sut bezlarining morfologik va	2